



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 210 sahifa,
13-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Alohida ehtiyojga muhtoj bolalarga matematika darslarida integratsion yondashuvni amalga oshirish	10
<i>Mamadjanova Ma'muraxon Kadirjanovna</i>	
O'quvchilarda raqamli madaniyatni shakllantirishning nazariy asoslari.....	13
<i>Boltayeva Go'zal Komilovna</i>	
Inkluziv ta'lim sharoitida o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini aniqlash metodologiyasi	21
<i>D. Sh. Jo'rayeva, J. A. Jovliyev</i>	
Bolalarda leksik-grammatik nutq kamchiliklarini bartaraf etishda kontekstli texnologiyalardan foydalanish	25
<i>Abdullayeva Yoqutjon Qalandar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi	30
<i>Abduvaliyeva Sabina Kurbonali qizi</i>	
O'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari.....	35
<i>Aripov Shokirjon Olimovich, Raxmatillayeva Sug'diyona Muhammadjon qizi</i>	
Pedagogik intuitsiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy metodikalar	39
<i>Axmedov Jaloliddin Oribovich</i>	
The Impact of AI-Generated English Learning Materials Based on Uzbek Rural Life on the Learning Motivation of Rural Students.....	42
<i>Baxramova Malika Muzaffarovna</i>	
Raqamli kutubxonalarda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish texnologiyalari va imkoniyatlari	47
<i>Choriyeva Zarina Anvarbek qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida orfografik savodxonlikni shakllantirishning nazariy-pedagogik asoslari ...	50
<i>D. Teshaboyev, M. Sotvoldiyeva</i>	
Oliy ta'limda tblt metodik modeli asosida baholash tizimini takomillashtirish	53
<i>Djurayeva Nargiza Kudratillayevna</i>	
Yangi O'zbekiston ta'lim tizimida pedagogik etikaning rivojida xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	59
<i>Dushayeva Nazokat Sharofiddinovna</i>	
Uilyam Shekspir tragediyalarining o'zbek adabiyotidagi o'rni.....	62
<i>Ergasheva Mehriyona</i>	
Qizlarning oilaviy kompetensiyasi uchun ijodiy pedagogika: Koreya dizayn ta'limi modelini O'zbekiston kontekstiga moslash.....	65
<i>G'ayratova Mohidil Zafar qizi</i>	
Jismoniy tarbiya darslarida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda umumrivojlantiruvchi mashqlardan foydalanish metodikasi	69
<i>Maksetova Nurjamal Kuatovna</i>	
Integrativ ta'lim muhitida bo'lajak surdopedagoglarning metodik kompetensiyalarini shakllantirish	72
<i>Malikova Xurshida Ikramovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarda ko'p uchraydigan tovush talaffuzi kamchiliklari va ularni bartaraf etishda lopedik usullar.....	75
<i>Moxirabonu G'aniyeva Adxam qizi</i>	
Talabalarga an'anaviy xonandalik ijrochiligini o'rgatishning pedagogik yondashuvlari.....	78
<i>Muxammadova Ozoda Muzrabovna</i>	
Hayotiy sifat tushunchasini psixologik mazmuni.....	82
<i>N. G. Pulatova</i>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida alohida ehtiyojlarga ega o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashning kompleks yondashuvlari	85
<i>Nazarova Dildora Asatovna, Abdurashidova Feruza Qaxramonovna</i>	
Inklyuziv ta'lim tizimida o'qituvchining ko'p qirrali pedagogik faoliyati va uning nazariy asoslari	89
<i>Nazarova Dildora Asatovna, Axmedova Aziza Temurovna</i>	



Xo'ja ahmad Yassaviy e'tiqod tarbiyasi haqida.....	93
<i>Norova Sevara Uyg'un qizi</i>	
Matritsa va uning determinanti mavzusini o'qitish orqali bo'lajak iqtisodchilarning analitik tafakkurini rivojlantirish texnologiyalari.....	97
<i>Nuriddinov Jalolxon Tursunboy o'g'li, Otaboyev Muxsinjon Muqimjonovich</i>	
Odam anatomiyasi darslarida interfaol va multimedia vositalaridan foydalanish yo'llari.....	104
<i>Nurmatov Norqobil Jo'rayevich, Qo'chqorova Moxira Dilmurod qizi, Boxodirova Nilufar Ikrom qizi</i>	
AQSh ta'lim tizimining o'ziga xos jihatlari va bugungi kundagi rivojlanishi.....	110
<i>Orishev Jamshid Bahodirovich</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishda xorijiy ta'limi tajribalari.....	116
<i>Pardayeva Gulbahor Jalg'ashovna</i>	
Kreativ ta'lim texnologiyalarining pedagogik mohiyati.....	119
<i>Sariboyev Nurali Abdunazarovich</i>	
Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning zamonaviy pedagogik tizimdagi o'rni.....	122
<i>Siddiqov Azamat Muhammadjon o'g'li</i>	
Konstruktiv yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida 4K ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	126
<i>Sobirova Sarvinoz Quvondiqovna</i>	
Criteria of Scientific Activity Implementation of Physical Culture Education Students.....	133
<i>Sapayev Ruzmat Radjapovich</i>	
O'smir yoshdagi o'quvchilarning ma'naviy ehtiyojlarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	136
<i>Tilovova Qizlarxon Ishpulat qizi</i>	
PIRLS tadqiqotida so'rovnomalarning qamrov doirasida maktab muhiti.....	141
<i>To'qliyeva Matluba Boqiyevna</i>	
Onlayn til o'rganish platformalarining esl o'quvchilarining og'zaki nutq ishonchi (speaking confidence) ga ta'siri.....	146
<i>Tojiboyeva Shohistaxon, Omonova Nargiza</i>	
Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishda kommunikativ o'yinlarning ahamiyati.....	151
<i>Toshpo'latova Sevinch O'ral qizi</i>	
Maktab o'quvchilarining jismoniy sifatlarini tarbiyalashning samarali uslublari.....	155
<i>Turdiyev Azam Xasanovich</i>	
O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda xalqaro baholash tizimini tatbiq etish imkoniyatlari.....	158
<i>Turobov Mamarajab Sodiq o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'limda ijodiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.....	163
<i>Umirzoqova Surayyo Xudoyberdiyevna</i>	
Talabalarda perspektiv tasvir bajarishga oid ko'nikmani shakllantirishda CAD dasturlaridan amaliy foydalanish imkoniyatlari.....	165
<i>Valiyev A'zamjon Nematovich, Toxirov Sardorbek Muzaffar o'g'li</i>	
Duduqlanishni bartaraf etishda qo'llaniladigan usullar va vositalar.....	173
<i>Xasanova Barnoxon Abdusattor qizi</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish usullari.....	176
<i>Xudoyberdiyeva Dildora Nazarjon qizi, Mambetova Lobar Mirzavali qizi</i>	
Duduqlanishga ega bolalar nutqini rivojlantirishda kompleks korreksion ishlar tizimi.....	179
<i>Xusanova Nozimaxon Zuxriddin qizi</i>	
Sirdaryo viloyatida tabiat va mehnat jarayonlarining tasviriy san'at orqali estetik va ekologik ifodasi.....	182
<i>Yorlaqova Malika Ahmad qizi</i>	
The Relevance of Artificial Intelligence in Teaching the English Language.....	186
<i>Yusupova Gulnoza Mirzoyevna</i>	
Umumta'lim maktabida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kuzatiladigan nutq xususiyatlari.....	189
<i>Zairova Nigora</i>	



Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari	193
<i>Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna</i>	
Педагогические технологии совершенствования физических качеств как основы здорового образа жизни	197
<i>Журабаев Абдукарим Маматкулович</i>	
Формирование духовно-нравственной компетентности будущих учителей как педагогическая проблема	200
<i>Зокиржонova Ф. Р., Рихситиллаева Д. Р., Меликузиева Ш. А.</i>	
Межкультурный диалог как инструмент воспитания гармоничной личности в школе	203
<i>Махмудхожаев Ориф Бахтиёрович</i>	
Talaba yoshlarining ma'naviy madaniyatini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar	205
<i>Xojametov Ajiniyaz Andriyanovich</i>	
Методика формирования познавательных интересов у младших школьников в процессе выполнения творческих заданий на уроках русского языка	207
<i>Юлдашева Тахмина Бону Гайратовна</i>	

SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIMNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TIZIMDAGI O'RNI



Siddiqov Azamat Muhammadjon o'g'li

Namangan davlat pedagogika instituti

Kreativ pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi

ORCID: 0009-0007-4432-2377

Annotatsiya: Mazkur maqolada shaxsga yo'naltirilgan ta'limning mazmun-mohiyati, nazariy asoslari va amaliy ahamiyati yoritilgan. Unda zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchini ta'lim jarayonining markaziy subyekti sifatida qarash, uning individual xususiyatlari va subyektiv tajribasini inobatga olish zarurligi asoslab beriladi. Shuningdek, an'anaviy ta'lim yondashuvi bilan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'rtasidagi farqlar tahlil qilinib, ta'lim jarayonini tashkil etishda o'qitish va o'rganishning o'zaro uyg'unligi muhimligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, ta'lim jarayoni, o'quvchi subyekti, metabilimlar, pedagogik hamkorlik, baholash mezonlari, innovatsion ta'lim, ta'lim modeli, o'qitish va o'rganish integratsiyasi.

Abstract: This article discusses the essence, theoretical foundations, and practical significance of learner-centered education. It substantiates the necessity of considering the learner as the central subject of the educational process, taking into account individual characteristics and subjective experience in modern education. The differences between traditional and learner-centered approaches are also analyzed, emphasizing the importance of the harmonious integration of teaching and learning processes in organizing education.

Key words: learner-centered education, educational process, learner as subject, meta-knowledge, pedagogical cooperation, assessment criteria, innovative education, educational model, integration of teaching and learning.

Аннотация: В данной статье рассматриваются сущность, теоретические основы и практическая значимость лично-ориентированного образования. Обосновывается необходимость рассмотрения обучающегося как центрального субъекта образовательного процесса, учета его индивидуальных особенностей и субъективного опыта в современной системе образования. Также анализируются различия между традиционным и лично-ориентированным подходами, подчеркивается важность гармоничного сочетания процессов обучения и учения при организации образовательного процесса.

Ключевые слова: лично-ориентированное образование, образовательный процесс, субъект обучения, метазнания, педагогическое сотрудничество, критерии оценивания, инновационное образование, модель образования, интеграция обучения и учения.

KIRISH

Bugungi kunda jahon ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor strategik yo'nalishlaridan biri shaxsga yo'naltirilgan ta'lim hisoblanadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchini ta'lim jarayonining subyekti sifatida qarash, uning individual xususiyatlarini aniqlash, shaxsiy tajribasining o'ziga xosligi va qadriyatini e'tirof etish hamda pedagogik ta'sirlarni aynan o'quvchining subyektiv tajribasiga tayangan holda tashkil etish tamoyiliga asoslanadi.

Mazkur yondashuv chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lib, insonni yuksaltirish va uning insoniy mohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga intilish qadim davrlardan boshlab kuzatiladi. Masalan, qadimgi yunon faylasufi Protogor tomonidan ilgari surilgan "Barcha narsalarning o'lchovi - inson" g'oyasi shaxs markaziy qadriyat sifatida qaralganini ifodalaydi. Shuningdek, shaxsni har tomonlama uyg'un rivojlantirish g'oyasi sovet pedagogikasi amaliyotida ham muhim o'rin egallagan bo'lib, inson eng oliy qadriyat sifatida "Hammasi inson uchun, hammasi inson farovonligi uchun" tamoyili orqali ifodalangan.^[5,27]

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchi shaxsini ta'lim jarayonining markaziy subyekti sifatida e'tirof etadi, bunda bolaning individual xususiyatlari va qadriyatli jihatlari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Har bir o'quvchining subyektiv tajribasi avval aniqlanadi va ochib beriladi, so'ngra u ta'lim mazmuni bilan integratsiyalashadi.



An'anaviy ta'lim falsafasida shaxs rivojlanishi asosan tashqi belgilangan me'yor va andozalar asosida talqin qilingan bo'lsa, shaxsga yo'naltirilgan ta'limda o'quvchining subyektiv tajribasi uning shaxsiy hayot faoliyatining muhim manbai sifatida tan olinadi.

MAVZUGA ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'lim jarayonida faqat tashqi pedagogik ta'sirlarning o'zlashtirilishi emas, balki o'quvchining mavjud tajribasi va taqdim etilayotgan bilimlar o'rtasida o'ziga xos o'zaro "uchrashuv" jarayoni sodir bo'ladi. Ushbu jarayonda o'quvchining shaxsiy tajribasi boyitiladi, takomillashtiriladi va rivojlantiriladi. Natijada shaxsning individual rivojlanish yo'nalishi shakllanadi. O'quvchini ta'lim jarayonining asosiy subyekti sifatida tan olish shaxsga yo'naltirilgan pedagogikaning asosiy mohiyatini tashkil etadi.

Ta'lim jarayonini loyihalashda ikki teng huquqli asos - o'qitish va o'rganish jarayonlariga tayanish zarur. Bunda o'rganish jarayoni faqat o'qitish natijasi sifatida emas, balki mustaqil, shaxs rivojida muhim ahamiyatga ega bo'lgan alohida omil sifatida qaraladi.

Shu tariqa, an'anaviy yondashuvga ko'ra, ta'lim jarayoni o'quv-tarbiyaviy jarayon sifatida talqin etilib, uning asosiy tarkibiy qismlari o'qitish va tarbiyalashdan iborat deb qaralgan. Ushbu jarayonlarni tashkil etishga asosiy e'tibor qaratilgan, chunki bola faqat maxsus tashkil etilgan pedagogik ta'sirlar orqali rivojlanadi, degan qarash ustun bo'lgan.

Bilimlarni to'liq o'zlashtirishni ta'minlaydigan, o'quv faoliyatini shakllantiradigan hamda aqliy rivojlanishga bevosita ta'sir ko'rsatadigan ta'lim rivojlantiruvchi ta'lim sifatida talqin etiladi.

Ushbu tizimni shakllantirish tamoyillari shaxsning har tomonlama rivojlanishiga yo'naltirilgan. Maktab ta'lim tizimi doimo shaxsni rivojlantirish maqsadini e'lon qilib kelgan bo'lsa-da, bu maqsad asosan shaxsning uyg'un va har tomonlama rivojlanishi sifatida umumiy vazifa tarzida ifodalangan. Rivojlanishning ijtimoiy-pedagogik modellari madaniy va ijtimoiy me'yorlar shaklida berilib, o'quvchilardan aynan ushbu andozalarni o'zlashtirish talab etilgan. Bunda shaxs ushbu me'yorlarni tashuvchi va ifodalovchi subyekt sifatida talqin qilingan bo'lib, ularning mazmuni jamiyatda hukmron bo'lgan mafkuraviy qarashlar bilan belgilanib kelgan.

Shaxsga yo'naltirilgan pedagogika ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda asosan tashqi pedagogik ta'sirlarning - o'qituvchi, jamoa va guruhning - yetakchi rolini e'tirof etgan holda faoliyat yuritgan.^[2,43] Bunda alohida shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish jarayoniga nisbatan tashqi omillar ustuvor deb qaralgan.

Shu asosda tegishli didaktik modellar ham ishlab chiqilgan bo'lib, ular ta'lim jarayonida individual yondashuvni amalga oshirishga xizmat qilgan. Mazkur yondashuv, asosan, o'quvchilarni kuchli, o'rtacha va zaif guruhlarga ajratish bilan cheklanib qolgan. O'quv materialini murakkablik darajasiga ko'ra differensial tashkil etish orqali pedagogik tuzatishlar kiritilgan (jumladan, dasturlashtirilgan va muammoli ta'lim texnologiyalari).

Bunday individual yondashuv doirasida fanlar bo'yicha differensiallash amalga oshirilgan bo'lib, u asosan oliy ta'limga tayyorgarlik talablari bilan bog'liq holda shakllangan. Umumta'lim maktabi ko'proq oliy ta'lim muassasalariga tayyorlov bosqichi vazifasini bajargan va ushbu ijtimoiy buyurtma fanlar kesimidagi differensiallash orqali amalga oshirilgan. Shu jarayonda esa o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy va individual farqlari (oilaviy an'analar, hayot tarzi, diniy qarashlar va boshqalar bilan bog'liq xususiyatlar) yetarli darajada inobatga olinmagan.^[4,38]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning psixologik modellari asosan kognitiv (aqliy) qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, bu qobiliyatlar ko'proq umumiy ko'rinishda - refleksiya, rejalashtirish va maqsad qo'yish kabi funksiyalar orqali talqin etilgan. Bunda individual xususiyatlar ikkinchi darajali ahamiyat kasb etgan. Ushbu qobiliyatlarni rivojlantirish vositasi sifatida o'quv faoliyati qabul qilingan bo'lib, u o'zining me'yoriy mazmuni va tuzilishi jihatidan "etalon" model sifatida shakllantirilgan.

Individual qobiliyatlar ko'pincha "o'zlashtirish qobiliyati" orqali namoyon bo'lib, u bilimlarni egallash darajasi sifatida baholangan. Bilimlar qanchalik tizimli (ayniqsa nazariy jihatdan) bo'lsa, o'zlashtirish darajasi ham shunchalik yuqori bo'lgan.^[3,52]

Mazmunga hamda o'quv materialining maxsus tuzilishiga bog'liq bo'lgan o'zlashtirish qobiliyati shu tariqa individual xususiyat sifatida emas, balki tipik shaxsiy xususiyat sifatida talqin etilgan (masalan, nazariyotchilar, empiriklar, ko'rgazmali-obrazli yoki so'z-mantiqiy tafakkur egalari va boshqalar).

Ushbu modellarning barchasini quyidagi umumiy jihatlar birlashtiradi:

- shaxs rivojlanishining asosiy manbai sifatida ta'limni yetakchi omil deb e'tirof etish;
- oldindan belgilangan sifatlar, xususiyatlar va qobiliyatlarga ega shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan yondashuv ("men xohlagandek bo'l" tamoyili);

- rivojlanishni bilim, ko'nikma va malakalarni egallash, ularning hajmini kengaytirish hamda mazmunini murakkablashtirish, shuningdek, ijtimoiy me'yorlar (tushunchalar, ideallar, xulq-atvor namunalari)ni o'zlashtirish jarayoni sifatida talqin etish;
- shaxsning tipik xususiyatlarini ijtimoiy-madaniy muhit mahsuli sifatida ajratish va shakllantirish ("jamoaviy subyekt" konsepsiyasi);
- interiorizatsiya (o'zlashtirish) mexanizmini shaxs rivojlanishining asosiy omili sifatida belgilash.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi vaqtda shaxsga yo'naltirilgan ta'limni tushunish va tashkil etishga doir yangi yondashuvlar shakllanmoqda. Ushbu yondashuvning asosida har bir insonning individualligi, o'ziga xosligi hamda o'zini baholash qobiliyati e'tirof etiladi. Bunda shaxs rivoji "jamoaviy subyekt" sifatida emas, balki o'ziga xos noyob subyektiv tajribaga ega alohida individ sifatida qaraladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tizimini amalga oshirish pedagogikada "yo'nalish vektori"ni o'zgartirishni talab etadi. Ya'ni normativ asosda qat'iy tartibga solingan o'qitish jarayonidan o'quvchining individual o'quv faoliyatiga, uni qo'llab-quvvatlash va tuzatishga yo'naltirilgan yondashuvga o'tish zarur hisoblanadi.

Ta'lim jarayoni rivojlanish yo'nalishini faqat belgilab bermasdan, balki uning amalga oshishi uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlarni yaratadi. Shu bois ta'limning funksional mazmuni sezilarli darajada o'zgaradi. Uning asosiy vazifasi barcha o'quvchilar uchun yagona va majburiy psixik rivojlanish chizig'ini belgilash emas, balki har bir o'quvchining mavjud bilish tajribasini inobatga olgan holda uning individual qobiliyatlarini rivojlantirish va shaxs sifatida kamol topishiga ko'maklashishdan iborat bo'ladi.

Bunday yondashuvda ta'lim jarayonining boshlang'ich nuqtasi rejalashtirilgan yakuniy natijalarni amalga oshirish emas, balki har bir o'quvchining individual bilish imkoniyatlarini aniqlash va ularni rivojlantirish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish hisoblanadi.

O'quvchi qobiliyatlarini rivojlantirish shaxsga yo'naltirilgan pedagogikaning asosiy vazifasini tashkil etadi. Bu jarayonda rivojlanish vektori "ta'limdan o'quvchiga" emas, balki "o'quvchidan uning rivojlanishiga xizmat qiluvchi pedagogik ta'sirlarni aniqlashga" yo'naltiriladi. Shu bois butun ta'lim jarayoni aynan ushbu maqsadga xizmat qilishi lozim.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tizimini loyihalash masalasiga to'xtalganda, uning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ideal model yaratish imkoniyati cheklanganligini ta'kidlash lozim. Ya'ni oldindan umumiy maqsadlar va yakuniy natijalarni qat'iy belgilash, o'quvchining subyektiv tajribasini hisobga olmagan holda to'liq amalga oshirib bo'lmaydi. Shu jihatdan "proyektlashtirish" (fikran ideal rejalashtirish) va "loyihalash" (real amaliy loyiha yaratish va uni tatbiq etish) tushunchalari bir-biridan farqlanadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etish va boshqarish samaradorligi faqat tashkiliy jihatlarga emas, balki ta'lim jarayonining asosiy subyeksi bo'lgan o'quvchining individual qobiliyatlariga ham bevosita bog'liqdir. Bu esa loyihalash jarayonini moslashuvchan, variativ va ko'p omilli tizim sifatida tashkil etishni talab etadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tizimini loyihalash quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- o'quvchini ta'lim jarayonining asosiy subyeksi sifatida tan olish;
- loyihalash maqsadini belgilash, ya'ni o'quvchining individual qobiliyatlarini rivojlantirish;
- qo'yilgan maqsadni amalga oshirish vositalarini aniqlash, ya'ni o'quvchining subyektiv tajribasini o'rganish, tizimlashtirish va ta'lim jarayonida maqsadli rivojlantirish.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish ta'lim mazmunini faqat ilmiy bilimlar bilan cheklab qo'y-masdan, balki metabilimlarni, ya'ni bilish usullari va metodlarini ham o'z ichiga olishni talab etadi. Shuningdek, ta'lim jarayoni ishtirokchilari - o'quvchilar, o'qituvchilar va ota-onalar o'rtasida samarali hamkorlikni ta'minlovchi maxsus mexanizmlar va shakllarni ishlab chiqish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, o'quvchining rivojlanish xususiyati va yo'nalishini muntazam kuzatib borish uchun maxsus pedagogik monitoring jarayonlarini tashkil etish zarur. Shuningdek, uning individual xususiyatlarini rivojlantirish uchun qulay pedagogik shart-sharoitlar yaratish hamda jamiyatda shakllangan bola psixik rivojlanishi me'yorlari haqidagi an'anaviy tasavvurlarni qayta ko'rib chiqish talab etiladi. Bu jarayonda taqqoslash gorizontal (boshqa o'quvchilar bilan solishtirish) emas, balki vertikal (o'quvchining o'z rivojlanish dinamikasini o'zi bilan solishtirish) tamoyiliga asoslanishi lozim.

Maktab ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modelini samarali amalga oshirish uchun bir qator shart-sharoitlar zarur.

- *Birinchi*dan, ta'lim jarayonini o'qitish va tarbiyaning oddiy birlashmasi sifatida emas, balki shaxsning individualligini rivojlantirish va uning qobiliyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan yaxlit jarayon sifatida talqin etish lozim. Bunda o'qitish va tarbiya o'zaro uzviy va integratsiyalashgan holda amalga oshiriladi.



- *Ikkinchidan*, ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchilari - boshqaruvchilar, o'qituvchilar, o'quvchilar va ota-onalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimi va ularning funksional xarakteri aniq belgilab olinishi zarur.
- *Uchinchidan*, ta'lim jarayonining innovatsion samaradorligini baholash mezonlari ishlab chiqilishi va amaliyotga tatbiq etilishi lozim ^[1,39].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim va ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, u o'quvchini ta'lim jarayonining markaziy subyekt sifatida qarashga asoslanadi. Ushbu yondashuvda har bir o'quvchining individual xususiyatlari, subyektiv tajribasi va rivojlanish imkoniyatlari alohida ahamiyat kasb etadi.

An'anaviy ta'lim tizimidan farqli ravishda, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim faqat bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish bilan cheklanmaydi, balki metabilimlar, ya'ni bilish usullari va faoliyat metodlarini ham rivojlantirishni ko'zda tutadi. Shuningdek, ta'lim jarayonida o'qituvchi, o'quvchi va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, o'quvchilarning rivojlanishini muntazam kuzatib borish va ularning individual taraqqiyotini qo'llab-quvvatlash muhim hisoblanadi.

Mazkur yondashuvda ta'lim jarayonining asosiy maqsadi barcha o'quvchilarni bir xil andozaga moslashtirish emas, balki har bir shaxsning ichki imkoniyatlarini ochish va uning individual rivojlanishiga sharoit yaratishdir. Shu bois baholash ham solishtirishga emas, balki o'quvchining o'z rivojlanish dinamikasiga asoslanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M.Juraev, Pedagogik texnologiyalar va ta'lim jarayonini tashkil etish. Toshkent: Ilm ziyo, – 2020.
2. S.Turdiyev, Innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya, – 2018.
3. D.Abdullaeva, Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim: nazariyasi va amaliyoti. Samarqand: Ma'rifat, – 2021.
4. A. Zunnunov, Pedagogika nazariyasi. –Toshkent: Fan, 2018.
5. B. Xodjayev, Ta'lim metodologiyasi. –Toshkent, 2017.
6. Kayumov, B. Z. O., & Nurmanova, B. B. Q. (2026). Factors and causes of behavioral deviation in adolescents. *Science and Education*, 7(3), 534-537.
7. Kayumov, B. Z. O., & Boyturayeva, N. M. K. (2026). Online psychological consultation service: problems and solutions. *Science and Education*, 7(3), 527-533.
8. Kayumov, B. Z. O., & Kodirova, Z. S. Q. (2026). The influence of the virtual world on the formation of destructive behavior in adolescents. *Science and Education*, 7(3), 426-429.
9. Kayumov, B. Z., & Olimjonova, N. S. (2026). The importance of role playing in preschool children. *Science and Education*, 7(3), 475-480.
10. Qayumov, B. Z. O., & Rustamova, D. J. (2026). Causes of deviation in the education of school-age students. *Academic Journal of Science, Technology and Education*, 2(3), 101-103.
11. Kayumov, B. Z. O. (2026). Professional Development and Success of Teaching Staff in Higher Education//*European Review of Contemporary Arts and Humanities*, 2(2), 52-55.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.